

BADIY ADABIYOT VA SINESTEZIYA HODISASI MUNOSABATI TARIXIGA DOIR

Matyazova Gulnora Saparboyevna, ZARMED universiteti o'qituvchisi

ON THE HISTORY OF THE RELATIONSHIP BETWEEN LITERATURE AND THE PHENOMENON OF SYNAESTHESIA

Matyazova Gulnara Saparboevna, teacher at ZARMED University

К ИСТОРИИ ВЗАИМОСВЯЗИ ЛИТЕРАТУРЫ И ЯВЛЕНИЯ СИНЕСТЕЗИИ

Матязова Гульнара Сапарбаевна, преподаватель университета
ZARMED



<https://orcid.org/0000-0002-3955-1788>

e-mail:

gulnoramatyazova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur soha doirasida ko'plab nazariy munozaralar olib borilgan bo'lsa-da, empirik dalillar bilan asoslangan tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan. Ulman tomonidan ilgari surilgan sinesteziyaning kognitiv qonuniyatlar madaniyatlararo kesimda keng ko'lamli tekshiruvdan o'tkazilishi, bular ichida ayniqsa, katta hajmdagi empirik tadqiqotlarga asoslangan chuqur testlardan o'tkazilishiga ehtiyoj juda yuqori hisoblanadi. Bundan tashqari, turli tillardagi sinesteziyaning madaniy xususiyatlari ham hozircha yetarlicha o'r ganilmagan.

Kalit so'zlar: sinesteziya, nazariya, tadqiqot, tamoyil, kognitiv tamoyil.

Abstract: Although there is much theoretical debate in this area, there is a lack of empirically based research. There is a great need for a broad cross-cultural study of Ullman's cognitive regularities of synesthesia, especially in-depth testing based on large-scale empirical studies. In addition, the cultural characteristics of synesthesia in different languages are still poorly understood.

Keywords: synthesis, theory, research, principle, cognitive principle.

Аннотация: Несмотря на то, что в этой области ведется много теоретических дебатов, наблюдается отсутствие исследований, основанных на эмпирических данных. Потребность в широком кросс-культурном изучении когнитивных закономерностей синестезии, предложенных Ульманом, особенно в углубленном тестировании на основе масштабных эмпирических исследований, весьма велика. Кроме того, культурные особенности синестезии в разных языках еще недостаточно изучены.

Ключевые слова: синтез, теория, исследование, принцип, познавательный принцип.

KIRISH. Antropologik fanlar tadqiqi bilan shug'ullangan ko'plab olimlar lingvistik sinesteziyani tasodifiy qonuniyatlarga bo'ysunuvchi va ma'lum tamoyillarga hamda qonuniyatlarga bo'ysunmaydigan til hodisasi sifatida baholashgan. Faqt XX asrda olib borilgan ba'zi empirik tadqiqotlar (Karvoski va boshqalar, Ulman, Osgud, Uilyams) natijasida inson sezgisining kombinator tuzilishi ixtiyoriy tartibsizlik asosida emas, balki

sinestezik analogiyalarni yaratishda ma'lum qonuniyatlarga asoslangan holda amalga oshadigan tabiiy mexanizm ekani haqidagi xulosalarni keltirib chiqardi. Yuqorida tilga olingan tadqiqotlar orasida eng muhimlaridan biri semantik tilshunoslik sohasining vakili, ingliz tilshunosi Stiven Ulman tomonidan o'tkazilgan [7].

Empirik ma'lumotlarga tayanib, Ulman sinesteziya semantik qonuniga oid muhim ilmiy

farazni ilgari surdi, uning fikricha sinestetik ko‘chimlar, odatda, nisbatan boshlang‘ich va yuqori sezish darajasigacha yetib bormagan sezgilardan (masalan, teginish, ta’m) yuqori sezish darajasida rivojlangan sezgilarga (masalan, ko‘rish, eshitish) tomon rivojlanib boradi hamda bu tadrijiy rivojlanish bir tomonga yo‘nalgan bo‘ladi, buning aksi esa yuz berishi mumkin emas [7;280 b]. Ulmanning tadqiqotlari sinesteziya masalasini o‘rganishda sezilarli hissa bo‘lib qo‘silishi bilan birgalikda, keyingi izlanishlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunga qaramay, Ulmanning o‘zi tan olganidek, uning tadqiqotida u faqat to‘rtta mamlakat va uchta til (ingliz, fransuz va venger tillari)ni qamrab olganligi bois o‘ziga xos chegaralanish mavjud bo‘lgan. Shundan kelib chiqib ta‘kidlash lozimki, joriy tadqiqot ishida ham olingan natijalar dunyoda mavjud bo‘lgan barcha tillarga oid sinesteziya hodisasiga nisbatan umumiyligi, tatbiq qilinishi mumkin bo‘lgan qoida sifatida qabul qilinishi imkonsiz, bordi-yu bunday farazlar ilgari surilgudek bo‘lsa, ularni boshqa tillar misolida qo‘sishma dalillar bilan mustahkamlash lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. 1951-yilda Ulman tomonidan sinesteziyaning kognitiv qonunlariga oid peshqadam tadqiqot olib borilganidan beri sinesteziyaning kognitiv mexanizmlariga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi bilan birga, tadqiqotchilar (Gibbs, Kolston va boshqalar) sinesteziya hodisasini Lakoff va Jonsonning metafora nazariyalari nuqtayi nazaridan talqin qilishga urinmoqdalar, chunki sinestezik analogiyalar tabiatan metaforik xarakterga ega.

Qiyosiy-tipologik sath miqyosida olganda sinestezik metafora sohasida amalga oshirilgan birinchi ishlar qatoriga Ulman tadqiqotlaridan ilhomlangan holda, ingliz va nemis tillaridagi sinestezik ko‘chish qonuniyatlarini qiyosiy tahlil qilgan Deyning tadqiqotlarini kiritish mumkin [2]. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, qarindosh bo‘lmagan tillar sirasiga kiruvchi ingliz va o‘zbek kabi tarixan bog‘lanmagan, tipologiyasi, yozuv tizimi hamda madaniyati tubdan farq qiluvchi tillar o‘rtasidagi kontrast, qarindosh tillar o‘rtasidagi solishtirishlarga

qaraganda sinestezik metaforani tushunishda anche rang-barang va ko‘p jihatlarni o‘zida aks ettira oluvchi tadqiqot manbai bo‘lishi mumkin.

Ulmanning ta‘kidlashicha, “biz sinesteziyaga qaysi tomonidan yondashmaylik, u bizni o‘zining chegaraviy tabiatini va qamrovining kengligi bilan lol qoldiradi”[7;266-267b]. Ayni jihatni e’tiborga olib, ishonch bilan ta‘kidlash mumkinki, bunday tadqiqotlar odatda kamida to‘rtta tutash soha: adabiyot, lingvistika, psixologiya va kognitiv tadqiqotlarni qamrab oladi. Ushbu maqolada sinesteziya va adabiyot rakursida mazkur hodisaning o‘rganilishi tarixi haqida so‘z yuritilishi maqsad qilingan.

Sinesteziya tilda biz o‘ylagandan ko‘ra kengroq tarqalgan. Mazkur hodisaning turli tillarda, G‘arb va Sharq adabiyotlarida parallellikda rivoj topgan holati ko‘plab uchraydi.

Sinestezik metaforalar allaqachon qadimgi davrlarda, xususan, miloddan avvalgi XIX-VIII asrlarga oid Homerning epik asarlarida ham mavjud bo‘lgan. Masalan, “Iliada”dagi: “Go‘yo o‘rmondagi daraxtda o‘tirgan chigirkalar o‘zlarining nilufar tovushini chiqaradi”[3] mashhur obratzli tasvirlash sinestezik metafora ko‘rinishning nozik namunasi hisoblanadi.

Qadimgi Yunonistonning epik, mifologik va fojiali adabiyotlarida o‘sha davrdagi sezgi haqidagi falsafiy qarashlar (sensorika) rivojlangan ekanligi bois sinestezik metaforalar keng qo‘llanilga [8]. Qadimgi Rim adabiyotida esa, masalan, arxitekturaning benazir namunalariga nisbatan “muz qotgan musiqa” sinestetik metaforasi qo‘llanilgan.

Yevropa klassik adabiyotida ham bunday namunalar yetarlicha uchrashi mumkin, jumladan Shekspirning: “Ba’zan sening nigohing ziyofatdek to‘lib-toshib/Keyin esa, ko‘z tashlashga zor qolib och qolaman” [4; 152 b.] sonetidan hayratlanmaslik mumkin emas; shuningdek, Rilkening she’rida ifodalangan: “Oq atirgul nafasin / Qo‘llar ila tegish/” [1;152 b.] tasviri ham chuqr ta’sir uyg‘otadi. Shellining: “Tilim pichoqdek yuragim tubiga kirib, sirni yulib olishi kerak” [5;446 b.] yorqin metaforasi o‘quvchini larzaga soladi. Bunday ifodaning yanada qiziqarli o‘xshashi Vankuver orolidagi Kvakiutl hindularining tilida uchraydi: “So‘zlar mehmonlarga

nayza o‘ljani urgandek yoki quyosh nurlari yerni urgandek zarba beradi” [7; 267 b].

TAHLIL VA NATIJALAR. Sinesteziya hatto sinestezik tasavvurga unchalik qulay bo‘lmagan O‘rta asrlar davrida ham saqlanib qolgan. Jumladan, Dantening yoki Choserning asarlarida ko‘p sezgilar aralashgan obrazlarga duch kelish mumkin. Uyg‘onish davridan keyin esa, barokko she’riyati gullab-yashnadi — bu davrda o‘ziga xos tasvirlar va noodatiy metaforalar badiiy adabiyotning ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, bunday metaforalarning aksariyati esa sinestezik xusuiyatga ega metaforik ko‘chimlar bo‘lgan.

Undan keyingi davrlarga kelib, Nyutonning tovush va yorug‘lik to‘lqinlari orasidagi fizik uyg‘unlik haqidagi mulohazalari sinestezik izlanishlarga kuchli turtki bo‘ldi. Ushbu fikrlarning o‘ziga xos aksi esa, XVIII asrning ikkinchi yarmida G‘arbiy Yevropa badiiy adabiyotida yuzaga kelgan romantizm harakati vakillari ijodiy ishlarida to‘liq o‘zlashtirilgan, natijada esa, san’atning barcha turlarida, ayniqsa adabiyotda sinesteziya asosiy mavzulardan biriga aylangan. O‘sha davr adiblari sinestezik o‘xshatishlardan keng foydalanishgan, ba’zida bir necha sezgi turlarini birlashtirgan murakkab metaforalar yaratishgan.

Bunga Shellining “Epipsixidion” asaridagi quyidagi satrlar misol bo‘la oladi:

Har bir harakat, hid, nurlar va ohang,
O‘sha chuqur musiqaga hamnafas,
Ruhdagri ruhdek — ular go‘yo

Tug‘ilishdan oldingi tushlarning aks-sadosi [6. 446-449].

Keyinchalik bu uslub tanqidchilardan, jumlandan Maks Nordau va Ezra Paunddan salbiy taqriz oldi¹ — ular bu uslubni “so‘nish” va “chalkashlik” sifatida baholadi. Shunga qaramay, bu bahslar sinesteziya mavzusiga ilmiy e’tiborning oshishiga olib keldi. Xususan, XIX asrdan boshlab zamonaviy rassomlar, yozuvchilar va shoirlar turli sezgilar orasidagi sirli aloqani o‘rganishda davom etmoqda.

G‘arb adabiyotida sinesteziya — ya’ni turli sezgi tajribalarining birlashtirilgan ifodasi — qadimgi va zamonaviy tillarda keng tarqalgan. Biroq, shuni alohida ta’kidlash joizki, sinestezik mavzular tarixiga nazar tashlash, ularning shunchaki misollarini keltirishdan ko‘ra, adabiyotdagi rivojlanish jarayoni ni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Semantik nuqtayi nazardan sinesteziya hodisasining ilmiy o‘rganilishi borasida dastlabki qadamlar yuqorida avval ham ta’kidlab o‘tilganidek, ingliz olimi Stiven Ulman tomonidan amalga oshirilgan. Ulman inson tilida sinesteziyaning keng tarqalishi va turli xil ko‘rinishlari ortida umumiyy ustuvor tamoyillar yotishini taxmin qilgan. U taxminan o‘n uch yil davomida 12 nafar g‘arblik shoir va yozuvchilarning asarlaridan 2000 ga yaqin sinestetik ko‘chim holatlarini aks ettiruvchi misollar to‘plagan va bu holatlarda muayyan umumiyy qonuniyat mavjud ekanligini aniq ifodalab bera olgan. Ulman o‘rgangan shoir va yozuvchilar qatoriga Bayron, Kits, Uilyam Morris, Uayld, Dawson, Filips, Alfred Duglas, Artur Simons, Longfello, Lekont de Lil, Gotye va Vereshmarti kiradi [7]. Ular til, uslub va temperament jihatidan bir-biridan farqlanuvchi uslubda ijod qilishgan.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, Ulman qo‘llagan tadqiqot metodologiyasi juda oddiy. U sinesteziya o‘lchov me’yorlari sifatida an‘anaviy hislar kategoriyalarini olgan, chunki bu sodda va tayyor toifalar bizning psixologik tasnifi-mizga mos keladi. Ulmanga ko‘ra, hislar kam differensiyalanganlikdan ko‘proq differensiyalanganacha farqlanuvchi olti darajadan iborat bo‘lib, quyidagi ko‘rinishlardan iborat bo‘ladi: teri orqali his qilish, issiqlikni sezish², ta’m bilish, hid bilish, ko‘rish (akustik sezgi) va ko‘rish (vizual sezgi). Ma’lumki, har bir sinestezik metafora ko‘chishiga asos bo‘luvchi manba va maqsad bo‘lishi kerak, ayni paytda har ikkisi ham inson sensor-his qilish a’zolari vositasida tasniflanuvchi kategoriya hisoblanadi. Ulman tadqiqotida sinestetik metaforalar manba va

¹ Max S. Nordau (1849–1923) Vengriyada tug‘ilgan, sionistlar harakati yetakchisi, shifokor, yozuvchi va ijtimoiy tanqidchi bo‘lgan. Ezra W.L.Pound (1885–1972) amerikalik muhohijr shoir, tanqidchi va ziyoli bo‘lib, 20-asrning birinchi yarmida

Modernizm harakatining yetakchi namoyandalardan biri bo‘lgan.

² Ulmanning nazariyasiga ko‘ra, issiqlik taftini tuyish bu alohida sezgi organi faoliyati o‘laroq kategoriyalangan.

maqsad nuqtayi nazaridan guruhlangan va tahlil qilingan.

Quyidagi jadval Ulman tomonidan tahlilga tortilgan muallifning she'riy asarlarini qamrab oladi,

Manba	Tegish (Touch)	Issiqlik (Heat)	Ta'm (Taste)	Hid (Scent)	Ovoz (Sound)	Ko'rish (Sight)	Jami (Total)
Tegish	-	1	-	2	39	14	56
Issiqlik	2	-	-	1	5	11	19
Ta'm	1	1	-	1	17	16	36
Hid	2	-	1	-	2	5	10
Ovoz	-	-	-	-	-	12	12
Ko'rish	6	2	1	-	31	-	40
Jami	11	4	2	4	94	58	173

Nazariy jihatdan olganda, sinestezik ko'chimlarning 30 turi mavjud bo'lishi kerak. Biroq yuqorida keltirilgan jadval shuni ko'rsatadi, bu ko'chimlar soni teng proporsionallikda taqsimlangan emas: jumladan yuqorida keltirilgan Ulmanning jadvalida ham ayrim toifalar nihoyatda kam uchraydi, boshqalari esa muntazam ravishda qayd etilgan. Jadvallarning diagonali nafaqat sinestesiya yuzaga kelmaydigan, ya'ni manba va nishon bir xil sezgi sohasi doirasida bo'lgan holatlarni ifodalaydi, balki u ko'tariluvchi va pasayuvvchi (tushuvchi) ko'chimlarni ajratib turuvchi chegaraviy chiziq vazifasini ham bajaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Ulmanning ushbu iyeraxik taqsimlanishga doir ilmiy xulosalari sinestesiya tadqiqotlarida muhim burilish nuqtasini anglatadi. Garchi ba'zi olimlar bunday tendensiyalar mavjudligini ilgari intuitiv tarzda ilgari surgan bo'lishsa-da, aynan Ulman birinchi bo'lib bu boradagi dalillarni keng miqyosdagi empirik tadqiqotlar asosida taqdim etgan.

bu yerda gorizontal o'q maqsad sohasini, vertikal o'q esa manba sohasini ko'rsatadi [7; 281 b].

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Die Blinde. Werke, Insel Verlag, 1957, Bd. I, S. 152 p.
2. Day, Sean. Synesthesia and Synaesthetic Metaphors. Psyche: An Interdisciplinary Journal of Research on Consciousness, Vol. 2, No. 32, 1996.
3. Diogenes Laertes, Lives of Philosophers, HI. vii, Loeb, vol. I, P237 2002: 75-76)
4. Shakespeare, W., The Sonnets, 75 1990: 152.
5. Shelley, R B., The Cenci. The Complete Poetical Works of Percy Bysshe Shelley, Thomas Hutchinson ed., London: Oxford University Press, 1927: 296.
6. Shelley: Epipsychidion, L446-449. Tarjima muallifniki.
7. Ullmann, S. The Principles of Semantics. Oxford: Basil Blackwell, 1957. 348 p.
8. Rahimov, A. A. (2018). Genesis of early linguistic outlook on nominative activity. Восточно-европейский научный журнал, (2-5 (30), 27-29.

